

UDC: 343.35

KORRUPSIYA TUSHUNCHASI: TAHLIL VA TAKLIF

Boydedayev Sadirdin Abdusattorovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: salimov.22@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-9771-6886

Annotatsiya. Maqolada dunyo mamlakatlari, shu jumladan O'zbekiston uchun eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan korrupsiya muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Korrupsiyaga oid qonunchilikdagi definitsion normalar, shu jumladan, korrupsiya tushunchasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligidagi belgilangan normalar mazmuni, unda aks etgan korrupsiya tushunchasining mazmunini ochib beruvchi asosiy xususiyatlar milliy va xorijiy olimlarning qarashlarini o'zaro solishtirgan holda ilmiy jihatdan o'r ganilgan. Shuningdek, maqolada korrupsiya tushunchasini ta'riflash bilan bog'liq bo'lgan ikkita asosiy yondashuv, ya'ni qonunchilikdagi (tor) va ilmiy (kengaytirilgan) yondashuvlar mazkur yondashuv vakili bo'lgan olimlarning korrupsiya tushunchasini ta'riflashga qaratilgan ilmiy qarashlarini o'zaro taqqoslash orqali tahlil qilingan. Maqolada o'r ganilgan ilmiy qarashlar va qonunchilik tahlili natijalari yuzasidan korrupsiya tushunchasiga nisbatan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan hamda korrupsiya tushunchasiga xos bo'lgan eng asosiy xususiyatlar, shu jumladan, korrupsianing qonunga xilof ijtimoiy-huquqiy hodisa ekanligi, harakati yoki harakatsizlik orqali sodir etilishi, mulkiy va nomulkiy manfaatlarni qonunga xilof ravishda olishni nazarda tutishi, shuningdek, mulkiy va nomulkiy manfaatlarni olishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi kengligi – bularga mansabdar shaxsning o'zi (bevosita yoki vositachilar orqali) hamda uchinchi shaxslar ham kirishi kabi masalalar bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaviy qilmish, korrupsiya belgilari, hodisa.

ПОНЯТИЕ КОРРУПЦИИ: АНАЛИЗ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Бойдедаев Садирдин Абдулсатторович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье проводится научно-теоретический анализ проблем коррупции, которая является одной из самых острых проблем в мире, в том числе и в Узбекистане. На основе сопоставления взглядов отечественных и зарубежных ученых научно изучены дефиниционные нормы в законодательстве о коррупции, в том числе содержание норм, определенных в национальном законодательстве Республики Узбекистан касательно коррупции, основные признаки понятия коррупции. В статье также сравниваются два основных подхода к определению понятия коррупции – юридический (узкий) и научный (расширенный), путем сопоставления научных взглядов ученых об этих подходах. На основе результатов научного исследования и анализа законодательства разработано авторское определение понятия коррупции и выделены основные черты понятия коррупции, в том числе то, что коррупция является негативным социально-правовым явлением, совершаемым действием или бездействием, сделаны научные выводы по таким вопросам, как неправомерное приобретение

имущественной и неимущественной выгоды, а также широта круга лиц, которые могут получить данные имущественные и неимущественные выгоды, в том числе и самого должностного лица (напрямую или через посредников) и третьих лиц.

Ключевые слова: антикоррупционное законодательство, понятие коррупции, коррупционное действие, признаки коррупции, явление.

CONCEPT OF CORRUPTION: ANALYSIS AND SUGGESTIONS

Boydedaev Sadirdin Abdusattorovich,
Independent researcher of
Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the problems of corruption, which is one of the most acute problems in the world, including Uzbekistan. Based on a comparison of the views of domestic and foreign scientists, the definitional norms in the legislation on corruption, including the content of the norms defined in the national legislation of the Republic of Uzbekistan on the concept of corruption, the main features of the concept of corruption have been scientifically studied. The article also compares two main approaches to the definition of corruption, legal (narrow) and scientific (broad) approaches, by comparing the scientific views of scientists representing this approach. Based on the results of scientific research and analysis of the legislation studied in the article, the author's definition of the concept of corruption is developed and the main features of the concept of corruption are highlighted, including the fact that corruption is a negative social and legal phenomenon committed by action or inaction, scientific conclusions are made on such issues, as the unlawful acquisition of property and non-property interests, as well as the breadth of the circle of persons who can receive property and non-property benefits, including the official himself (directly or through intermediaries) and third parties.

Keywords: anti-corruption legislation, concept of corruption, act of corruption, signs of corruption, incident.

Kirish

Korrupsiya ijtimoiy hodisa sifatida tizimli tusga ega bo'lib, bu uning takror va takror sodir etilishi, ommaviyligi, tarixan o'zgaruvchan bo'lsa-da, asosiy negizi yagonaligi, ijtimoiy ahamiyat kasb etishi kabi xususiyat va belgilarda namoyon bo'ladi. Korrupsiyaviy huquqbazarlik fosh etilguniga qadar uni aniqlash va ro'yxatga olishga to'sqinlik qiluvchi turli xil latent ko'rinish va shakllarga ega bo'ladi. Bu esa mazkur qilmishlarni qayd etish va ularga yuridik jihatdan qonuniy baho berish imkoniyatini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish, mazkur turdag'i huquqbazarliklarni sodir etgan davlat xizmatchilari javobgarligi masalalariga davlatimiz e'tibori tobora

kuchayayotgan sharoitda korruptsianing nazariy tushunchasini alohida o'rganish lozim. Korrupsiya va unga qarshi kurashish muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda eng astoydil muhokama qilinadigan va munozaraga sabab bo'ladigan masalalardan biri – bu aynan korrupsiya tushunchasidir. Uni ta'riflashda fikrlar ko'pligi va turfa xil ligi zamonaviy vogelikda korrupsiya ham davlat, ham xususiy sektorda namoyon bo'lishi va keng urchib ketganligi bilan bog'liq.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalilanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, sintez, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llanilgan. Bundan tashqari, em-

pirik materiallar, xususan, statistika ma'lumotlari, ijtimoiy so'rov natijalari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Professor Q. Abdurasulova haqqoniy ravishda qayd etganidek, murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida korrupsiya tarixi qadimiyligiga ko'ra insoniyat sivilizatsiyasiga teng. Davlat xizmati tizimidagi korrupsiya haqidagi birinchi bitiklar Qadimgi Bobil (eramizgacha bo'lgan 24-asr) arxivlaridan topilgan [1, 18-b.].

Xalqaro qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qator normativ hujjatlar to'plangan bo'lib, ularning ayrimlarida korrupsiya tushunchasiga ta'rif berilgan. Masalan, BMT Korupsiyaga qarshi xalqaro kurash to'g'risidagi ma'lumotnomma hujjatida korrupsiya "davlat hokimiyatini shaxsiy manfaatlarga ega bo'lish yo'lida suiiste'mol qilish", deb ta'riflanadi [2, 16-b.]. Albatta, bunday ta'rif korrupsiya fenomeni mohiyatini to'g'ri aks ettira olmaydi, chunki u anche qisqa va cheklangan tusga ega.

1995-yilda Yevropa Kengashining Korupsiya bo'yicha sohalararo guruhi tomonidan korupsiyaga aniqroq ta'rif berilgan edi. Unga ko'ra, korupsiya deganda, poraxo'rlik va davlat yoki xususiy sektorda muayyan vazifalarni bajarish topshirilgan shaxslar tomonidan o'zining yoki boshqalar manfaati uchun qonunga xilof ravishda foyda olish maqsadida davlat mansabdor shaxsi, xususiy xizmatchi, mustaqil agent yoki boshqa har qanday davlat maqomidagi shaxsga yuklangan vazifalar buzilishiga olib kelgan qilmish tushuniladi [3, 337-b.].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleysi tomonidan 1979-yilda qabul qilingan Huquq-tartibot organlari xodimlarining odob-axloq kodeksi korupsiya tushunchasiga ta'rif berishni milliy qonunchilik vakolatiga havola qiladi, ammo ayni vaqtida korrupsiyaning tavsiyaviy tushunchasini ochib beradi. Mazkur xalqaro hujjatga ko'ra,

korrupsiya – bu mansabdor shaxsning o'z mansab vakolatlari doirasida mansab manfaatlarini buzgan holda yoki ularni buzmasdan, har qanday shaklda haq evaziga pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab sodir etiladigan har qanday harakat yoki harakatsizlikdir [4].

MDH doirasida "Korupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" (1999-yil 3-aprel) va "Korupsiyaga qarshi kurash siyosati to'g'risidagi qonunchilik asoslari to'g'risida" (2003-yil 15-noyabr) qabul qilingan Model qonunlar tarkibida ham korrupsiya tushunchasi mavjud. Birinchi qonunda mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Korupsiya (korupsiyaga oid huquqbazarliklar) – bu davlat mansabdor shaxslari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan, o'z mansab vakolatlari va ulardan kelib chiqadigan imkoniyatlardan foydalangan holda, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan mulkiy manfaatlar va imtiyozlarni shaxsan yoki vositachilar orqali qabul qilib olishi, xuddi shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ularni yuqorida manfaat va imtiyozlarni huquqqa xilof ravishda berish evaziga og'dirishdir" [5].

Keyingi model qonun hujjatida korupsiya deganda, "pora evaziga og'dirish (pora olish yoki berish), shaxs tomonidan jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga zid holda, o'zi yoki yaqinlari uchun foyda ko'rish (mol-mulk, xizmatlar yoki imtiyozlar va/yoki ustunliklarga, shu jumladan, nomulkiy tusdag'i ega bo'lish) maqsadida o'zining ommaviy mavqeyidan har qanday tarzda qonunga xilof foydalanish yoki ko'rsatilgan shaxsga qonunga xilof ravishda foyda berish" [6] tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida korupsiyaga qarshi qonunchilikda korupsiya tushunchasi "Korupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-sonli Qonunning 3-moddasida keltirilgan bo'lib, qonun chiqaruvchi tomonidan korupsiya – bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqe-

yidan shaxsiy manfaatlari yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdan iborat.

Bizningcha, qonun chiqaruvchi korrupsiyani shu tarzda ta'riflash orqali korrupsiyaga ancha tor tushuncha berib, uning mohiyati va mazmunini to'laqonli aks ettirmagan va sodir etishi mumkin bo'lgan aniq xatti-harakatlar ning hattoki qisqa ro'yxatini ham bermagan.

Umuman olganda, huquqni qo'llash amaliyotida korrupsiyani ta'riflash borasida ikita yondashuv shakllangan: qonunchilikdagi (tor) va ilmiy (kengaytirilgan).

Birinchi yondashuv tarafдорлари bo'lgan ayrim xorijiy olimlar tomonidan korrupsiya shaxsiy manfaat yo'lida mansab vakolati yoki hokimiyatni suiiste'mol qilish deb ta'riflanadi [7, 11-b.; 8-10].

Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, korrupsiya – bu davlat yoki boshqa ommaviy xizmatchilar (shu jumladan, deputatlar va sudyalar) yoki tijoriy yoxud boshqa (shu jumladan, xalqaro) tashkilotlar xizmatchilari tomonidan o'z maqomidan mol-mulk, unga bo'lgan huquqlar, xizmatlar yoki imtiyozlar (shu jumladan, nomulkiy tusdag'i) olish uchun noqonuniy ravishda foydalanish yoki chet ellik shaxslarga bunday mulk, unga bo'lgan huquqlar, xizmatlar yoki imtiyozlar (shu jumladan, nomulkiy tusdag'i) taqdim etish hisoblanadi [11].

Y.G. Naumov korrupsiyani shunday ta'riflaydi: "Korrupsiya mansabdor shaxslarning deviant xulq-atvori bo'lib, u jamiyat, davlat va boshqa shaxslar manfaatlariga zid ravishda, o'z maqomi yoki haqiqiy mavqeyi tufayli o'z vakolatlari, ulardan kelib chiqadigan imkoniyatlar, shuningdek, boshqa jamoat resurslaridan, g'ayriqonuniy ravishda shaxsiy, tor guruqlar yoki korporativ maqsadlar uchun foydalanishda ifodalanadi" [12].

Professor B.D. Axrarov esa korrupsiya faqat mansabdor shaxslarning vakolatlaridan

kelib chiqib, bunday mansabdor shaxslarning ham aynan ayrim yuqori toifalaridangina kelib chiqishi bilan xarakterlansa va bunda poraxo'rlik suiiste'molchilik vakolat doirasi dan chiqish kabi jinoyatlarda ifodalanishi, mansabdorlik jinoyatlarining mansabga sovuqqonlik bilan qarash, mansabdor shaxs tomonidan sodir etiladigan ekologiyaga qarshi jinoyatlar korrupsiya hisoblanmasligini qayd etadi [13].

Biz faqatgina yuqori toifadagi mansabdor shaxs korrupsiya jinoyatlarini sodir etishi mumkinligi borasidagi fikrga qo'shila olmaymiz, chunki amaliyotda mansabdor bo'lman gan xizmatchilarda ham shunday jinoyatlarni sodir etish holatlari uchraydi.

Xullas, qayd etish mumkinki, ushbu guruh olimlar korrupsiya – bu noqonuniy xatti-harakatlar majmuyidan iborat deb tushunadi. Ular bergen ta'rif va tushunchalar esa jinoyat va ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan qilmishlarni qayd etish bilan cheklanadi.

Bunda korrupsiyaning muhim belgilari ajratib ko'rsatiladi: ijtimoiy zarar (xavf), amal qilish doirasi, predmeti, subyektlari, korrupsiya subyektining mansab vakolatlari yoki maqomi, ommaviy mavqeyi, egallab turgan lavozimi bilan bog'liq ta'siridan foydalanishi.

Ikkinci yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi ayrim olimlar korrupsiya bir yoki bir nechta noqonuniy xatti-harakatlar majmuyi emas, balki kengroq tushuncha, jamiyatga qarshi, ijtimoiy xavfli hodisa ekanligini qayd etadi [14].

Jumladan, ayrim olimlar korrupsiyani majoziy ma'noda "iqtisod g'ildiragini moylash vositasi" sifatida ko'radi [15].

V.V. Astanining fikricha esa korrupsiya boshqaruvning turli sohalaridagi munosabatlar tanazzulga uchrashidan iborat ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, u o'z mansab mavqeyi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanadigan shaxslar poraxo'rligi va osonlik bilan sotilishi yoki sotib olinishi mumkinligida namoyon bo'ladi [16].

T.Y. Xabriyevaning ta'riflashicha, korrupsiya – bu ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, u davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, nafaqat davlat instituti faoliyati samaradorligini pasaytiradi, balki davlat hokimiyatini obro'sizlanrib, mamlakat nufuziga putur yetkazadi [14].

A.V. Kudashkin korruksiyani shaxsning o'zi uchun yoki affillangan shaxslar (xususan, qarindoshlari) uchun moddiy tusdagi manfaat (mol-mulk, xizmat yoki imtiyoz) olish va boshqa (nomoddiy) manfaat olish maqsadida jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarga zid ravishda, o'zining ommaviy mavqe-yidan har qanday shakldagi foydalanishi yo-xud bunday manfaatning boshqa (uchinchchi) shaxsga berilishi sifatida ta'riflaydi [17].

Ayrim olimlarning bayon etishicha, korruksiya – bu jamiyat manfaatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv tartibiga qarshi qaratilgan, kishilarning siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchini susaytiradigan davlat xizmatchilarining xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishdir [18].

Boshqa bir guruh olimlarning fikricha esa korruksiya – bu davlat va boshqa xizmatchilarining pora evaziga og'ib ketishi (sotib olinishi), ularning moddiy va nomoddiy manfaatlarni qabul qilishi yoki ushbu subyektlarning rasmiy maqomdan, maqom bilan bog'liq obro'-e'tibor, imkoniyatlar, aloqalar dan foydalangan holda, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar evaziga ma'lum afzallikkarga ega bo'lishi bilan tavsiflanadigan salbiy noqonuniy ijtimoiy hodisadir [19].

Xullas, ko'rniib turibdiki, aksariyat olimlar tomonidan korruksiyaning *jamiyatga zid ijtimoiy hodisa* ekanligi e'tirof etiladi.

Fanda, shuningdek, korruksiya mohiyatan ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida *ikkilamchi tabiatga egaligi* ta'kidlanadi. Ya'ni, bir tomondan, ommaviy maqomdagi shaxsning o'z mavqe-yidan biron-bir manfaat olish maqsadida noqonuniy foydalanishda (pora olish) bo'lsa, ikkinchi tomondan, ma'lum manfaat-

dor shaxs tomonidan ommaviy maqomga ega shaxsga bunday manfaatlarni qonunga xilof ravishda taqdim etish (pora berish)da ifoda-lanadi.

Korrupsiyaning mohiyati davlat funksiylarini bajarishga vakolatli shaxs tomonidan mulk, xizmatlar yoki manfaatlarni qonunga xilof ravishda olishda, shuningdek, unga bunday manfaatlarni berishda ifodalangan turli xil qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) majmuyi bilan belgilanadi [20].

Bizningcha, "mulk, manfaatga noqonuniy ega bo'lish va hokazo" har doim ham korruksiya bo'lavermaydi, chunki mansabdor shaxsning faoliyat sohasiga hech qanday aloqasi bo'lmasligi mumkin. Boshqacha aytganda, qilmish korruksiyaga aylanishi uchun "mulk va nomulkiy ne'matlarni qonunga xilof ravishda egallah" shaxsning mansabdorlik mavqeysi taqdim etgan imkoniyatlardan bevosita yoki bilvosita foydalanish bilan bog'liq bo'lishi shart.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, biz korruksiya fenomenining quyidagicha o'ziga xos jihatlari (belgilari)ni ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– *salbiy* qonunga xilof ijtimoiy-huquqiy hodisa;

– *mansabdor shaxsning* o'z xizmat vazifalari yoki u bajaradigan faoliyat sohasi doirasidagi harakati yoki harakatsizligi;

– *mansabdor shaxsning* lavozim maqomi tufayli berilgan imkoniyatlardan (vakolat, axborot va resurslardan foydalanish, aloqalar, obro'-e'tibor, ta'sir va h.k.) foydalanish bilan bog'liq holda, *mulkiy va nomulkiy manfaatlarni* qonunga xilof ravishda olish;

– *mansabdor shaxsning* korruksiyaviy qilmishi natijasida mulkiy va nomulkiy *manfaatlarni olishi mumkin bo'lgan shaxslar* doirasidagi kengligi – bularga mansabdor shaxsning o'zi (bevosita yoki vositachilar orqali) hamda uchinchchi shaxslar kirishi.

Bizningcha, korruksiyani faqat korruksiyaviy jinoyatlarni sodir etish deb tushunish

korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotiga mos emas. Bu esa, o'z navbatida, unga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirishga imkon bermasligi mumkin.

Xulosalar

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, korrupsiyaga o'zimizning quyidagicha mualliflik ta'rifini beramiz: korrupsiya – bu salbiy, qonunga xilof ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib,

mansabdor shaxsning o'z maqsadida yoki manfaatdor shaxslar maqsadida, lavozim maqomi tufayli berilgan imkoniyatlardan foydalanish bilan bog'liq holda, mansabdor shaxs shaxsan o'zi yoki vositachilar yoxud uchinchi shaxslar orqali mulkiy va nomulkiy manfaatni qonunga xilof ravishda olishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakat yoki harakatsizlikdan iborat.

REFERENCES

1. Korrupsiya – taraqqiyot tahdidi. Davra suhbatি materiallari [Corruption is a threat to development. Roundtable materials]. *Yurist axborotnomasi – Vestnik jurista – Lawyer herald*, 2018, no. 3, p. 18.
2. Maksimov V.K. Ponjatie korrupcii (kriminologicheskij aspekt) i mery ee preduprezhdenija v gosudarstvennom apparete [The concept of corruption (criminological aspect) and measures to prevent it in the state apparatus]. PhD thesis. Moscow, 2005, p. 16.
3. Luneev V.V. Prestupnost' XX veka. Mirovye, regional'nye i rossijskie tendencii [Crime of the twentieth century. World, regional and Russian trends]. Moscow, Norma, 1999, p. 337.
4. Kodeks povedenija dolzhnostnyh lic po podderzhaniju pravopорядка, prinjat rezoljuciej 34/169 General'noj Assamblei OON ot 17 dekabrja 1979 goda [Code of Conduct for Law Enforcement Officials, adopted by UN General Assembly Resolution 34/169 of 17 December 1979]. UN website. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code_of_conduct.shtml.
5. Model'nyj zakon "O bor'be s korrupcijej". Prinjat v g. Sankt-Peterburge 03.04.1999 Postanovleniem 13-4 na 13 plenarnom zasedanii Mezhparlamentskoj Assamblei gosudarstv-uchastnikov SNG [Model Law "On Combating Corruption". Adopted in St. Petersburg on April 3, 1999 by Decree 13-4 at the 13th plenary session of the Interparliamentary Assembly of the CIS Member States]. Available at: <http://base.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc;base=INT;n=13604/> (accessed 24.02.2013).
6. Model'nyj zakon «Osnovy zakonodatel'stva ob antikorruptionnoj politike». Prinjat v g. Sankt-Peterburge 15.11.2003 Postanovleniem 22-15 na 22-m plenarnom zasedanii Mezhregional'noj Assamblei gosudarstv-uchastnikov SNG [Model Law "Fundamentals of Legislation on Anti-Corruption Policy". Adopted in St. Petersburg on November 15, 2003 by Decree 22-15 at the 22nd plenary meeting of the Interregional Assembly of CIS Member States]. Available at: <http://base.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc;base=INT;n=26950/> (accessed 24.02.2013).
7. Svensson J. Eight questions about corruption. *The Journal of Economic Perspectives*, 2005, vol. 19, no. 3, pp. 19–42.
8. Park H. Determinants of corruption: A cross-national analysis. *The Multinational Business Review*, 2003, vol. 11, no. 2, pp. 29–48.
9. Van Klaveren V.J. The concept of corruption. Political Corruption. Ed. A.J. Heidenheimer, M. Johnston, V.T. Levine. New Brunswick, NJ, Transaction Publishers, 1989, pp. 89–91.
10. Heidenheimer A.J. Perspectives on the perception of corruption. Political Corruption. Ed. A.J. Heidenheimer, M. Johnston, V.T. Levine. New Brunswick, NJ, Transaction Publishers, 1989, pp. 149–163.

11. Maksimov S.V. Korrupcija. Zakon. Otvetstvennost' [Responsibility]. Ed. 3, reworked. and additional. Moscow, Institute of State and Law of the Russian Acad. Sciences, 2017, 287 p.
12. Naumov Ju.G. Korrupcija i obshhestvo: teoretiko-ekonomiceskoe i prikladnoe issledovanie [Corruption and Society: Theoretical, Economic and Applied Research]. Moscow, 2015, 111 p.
13. Axrarov B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari [Problems of liability for official crimes against management order]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2008, 348 p.
14. Habrieva T.Ja. , Ivanov S.B., Chihanchin Ju.A. Protivodejstvie korrupcii: novye vyzovy [Anti-Corruption: New Challenges]. Moscow, 2016, 148 p.
15. Meon P.-G., Sekkat K. Does corruption grease or sand the wheels of growth? Public Choice, 2005, vol. 122, pp. 69-97.
16. Astanin V.V. Korrupcija i bor'ba s nej v Rossii vtoroj poloviny XVI-XX vv. (kriminologicheskoe issledovanie) [Corruption and the fight against it in Russia in the second half of the 16th-20th centuries (criminological research)]. PhD thesis. Moscow, 2015, 209 p.
17. Kudashkin A.V. Antikorruptsionnaja jekspertiza: teoriya i praktika [Anti-corruption expertise: theory and practice]. SPS Konsul'tant Pljus. Moscow, Norma, Infra-M, 2012.
18. Halilova N.I., Jabborov N.S. Korruptsiyaning kushanda sifatidagi mazmun-mohiyati, tipologiyasi va shakllari [Essence, typology and rampant forms of corruption]. *Scientific Progress*, 2021, vol. 2, iss. 7, pp. 1272-1276.
19. Kriminologija [Criminology]. Ed. V.D. Malkova. 3rd ed., revised. and additional. Moscow, Justicinform, 2008, p. 331.
20. Kriminologija [Criminology]. Ed. V.N. Kudrjavceva, V.E. Jeminova. 4rd ed., revised. and additional. Moscow, Norma, 2009, p. 409.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abdullaev, F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.03.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 22,08 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 6.

TDYU tipografiyasida chop etildi.